

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**RO‘ZMETOV UCHQUN O‘RUNBOYEVICH**

**ATROF-MUHIT OBYEKTLARIDAN Fe(III), Cu(II) VA Zn(II) IONLARINI  
ANIQLASHNING GIBRID SORBSION-SPEKTROSKOPIK USULLARINI  
ISHLAB CHIQISH VA VALIDATSIYASI**

**02.00.02 – Analitik kimyo  
(kimyo fanlari)**

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора науки (DSc)**  
**Content of the abstract dissertation of doctor of sciences (DSc)**

**Ro‘zmetov Uchqun O‘runboyevich**

Atrof-muhit obyektlaridan Fe(III), Cu(II) va Zn(II) ionlarini aniqlashning gibridd sorbtсион-spektroskopik usullarini ishlab chiqish va validatsiyasi. . . . . 3

**Рузметов Учкун Урунбоевич**

Разработка и валидация гибридных сорбционно-спектроскопических методов определения ионов Fe(III), Cu(II) и Zn(II) в объектах окружающей среды. . . . . 29

**Ruzmetov Uchkun Urunboyevich**

Development and validation of hybrid sorption-spectroscopic methods for determining Fe(III), Cu(II) and Zn(II) ions in environmental objects. . . . . 55

**E‘lon qilingan nashrlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works. . . . . 59

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**RO‘ZMETOV UCHQUN O‘RUNBOYEVICH**

**ATROF-MUHIT OBYEKTLARIDAN Fe(III), Cu(II) VA Zn(II) IONLARINI  
ANIQLASHNING GIBRID SORBTSION-SPEKTROSKOPIK  
USULLARINI ISHLAB CHIQISH VA VALIDATSIYASI**

**02.00.02 – Analitik kimyo  
(kimyo fanlari)**

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/K157 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.ik-kimyo.nuuz.uz](http://www.ik-kimyo.nuuz.uz)) va « Ziyonet » Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Smanova Zulayho Asanaliyevna,**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Sultonov Marat Mirzayevich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Usmonova Hilola Umataliyevna,**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Abdurahmonov Ilhom Ergashovich,**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Umumiy va noorganik kimyo instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-07-88, faks: (+99824) 246-53-21; 246-02-24. e-mail: [ilmiy\\_kengash@nuu.ru](mailto:ilmiy_kengash@nuu.ru)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-07-88; 277-12-24, факс (+99824) 246-53-21; 246-02-24. e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.Sh. Daminova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi o‘rinbosari, k.f.d., professor

**N.X. Qutlimurotova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, k.f.d., professor

**B.N. Babayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi  
k.f.d., professor

## KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Butun dunyoda atrof-muhit obyektlarida konsentrlangan og‘ir metallar ekotizimlarni ifloslanishi natijasida inson salomatligiga katta xavf tug‘dirib, turli xil kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday muammolarni hal qilishda dastlab og‘ir va zaharli metall ionlari aniqlash va ajratish zarurdir. Oqava, dengiz, daryo va chiqindi suvlardagi metall ionlarini ajratishda turli xil ion almashuvchi sorbentlarni qo‘llash mumkin. Ammo tuproq, xavo va boshqa atrof muhit obyektlari tarkibidagi metallarni aniqlashda esa dastlab aniqlash, so‘ngra ajratish sxemasimi yaratish va ajratish amalga oshiriladi. Shuning uchun og‘ir metallarni aniqlash va ajratish jarayonini birgalikda qo‘llanilgan gibrid usullarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib iqtisodiy samaradorlikka olib keladi hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda og‘ir va zaharli metallarni ajratish va aniqlash bo‘yicha ekstraksiyon, spektroskopik va xromatografik usullarni ishlab chiqish bo‘yicha katta izlanishlar olib borilmoqda. Shu o‘rinda sezgirlik va tanlab ta’sir etuvchanlikni oshirish uchun tashuvchilarga turli xil funksional va analitik funksional analitik guruhlar tutgan organik reagentlar bilan immobillash orqali gibrid sorbsion-spektroskopik tahlil usullari ishlab chiqish orqali usulning metrologik tavsiflari va analitik parametrlar oshirishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu usullar sorbsiya va spektroskopiyaning afzalliklarini samarali birlashtirgan istiqbolli yechimni ifodalaydi. Ushbu usullar yuqori sezgir va tanlab ta’sir qilish imkonini beradi, namuna tayyorlashni soddalashtiradi va tadqiqot xarajatlarini kamaytiradi. Ushbu afzalliklar ularni dunyoning turli geografik mintaqalarida, jumladan, murakkab uskunalardan foydalanish cheklangan joylarda atrof-muhit monitoringi dasturlari uchun mos keladi. Birmuncha qimmat uskunalar induktiv bog‘langan plazma atom-emission spektroskopiyasi (ICP-AES), induktiv bog‘langan plazma mass spektrometriyasi (ICP-MS) kabi murakkab tuzilishli uskunalar yuqori malakali mutaxassisni va boshqa murakkab na’munalarni tayyorlashni talab qiladi, bu ularni ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda keng qo‘llash uchun amaliy yechim bo‘lolmaydi. Ishlab chiqilgan usullarni tekshirish ularning turli sharoitlarda ishonchliligi va qayta takrorlanuvchanligini ta’minlash uchun katta ahamiyatga ega. Bunday holda aniqlik, sezgirlik va selektivlik kabi parametrlarni baholash mumkin, bu esa atrof-muhitni tahlil qilishning xalqaro amaliyotida ko‘rib chiqilayotgan usullarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun juda muhimdir. Shunday qilib butun dunyo bo‘ylab ekologik xavfsizlikni ta’minlash va aholi salomatligini muhofaza qilish zarurligini hisobga olgan holda, atrof-muhit obyektlarida Fe(III), Cu(II) va Zn(II) ionlarini aniqlashning gibrid sorbsion-spektroskopik usullarini ishlab chiqish va validatsiyasi nafaqat ilmiy doiralarda, balki global miqyosda ham dolzarbdir.

Respublikamizda kimyo sanoati korxonalarining chiqindi va texnogen suvlari tarkibidan mis, rux va temir ionlarini ajratish va aniqlash borasida qulay, tezkor va iqtisodiy samarador usullarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Mamlakatimizni jadal rivojlantirish bo‘yicha “O‘zbekiston–2030” strategiyasida<sup>1</sup> iqtisodiyotni

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qoʻshilgan qiymatli tayyor mahsulot turlarini koʻpaytirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini oʻzlashtirish masalalari alohida belgilab qoʻyilgan. Bu borada, jumladan, atrof-muhit obyektlaridagi turli ogʻir, zaharli metall ionlarini aniqlashning zamonaviy sorbsion-spektroskopik usullarini ishlab chiqishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Mazkur sohada mahalliy xomashyodan maqsadga muvofiq foydalanish va yangi metodlar, ulardan atrof-muhit obyektlaridan mis, rux va temir ionlarini aniqlash boʻyicha ilmiy va amaliy natijalarga erishildi. Ushbu usullarning sezgirligi, samaradorligi, selektivligini oshirish maqsadida sorbsion-spektroskopik usullar rivojlanib bormoqda. Respublikamizda kimyo sanoati chiqindi suvlari tarkibidagi ogʻir metal ionlarini ajratish va aniqlash uchun sezgir, tezkor va qulay usullarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-son Farmonida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5863-son Farmonida, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-fevraldagi “Ekologik xavfsizlik toʻgʻrisidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida” VM-95-son qarori hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga muayyan xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq bajarilgan.

#### **Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Hozirgi vaqtda ilmiy hamjamiyat ogʻir va zaharli metallar mavjudligini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin boʻlgan bir qator usullari mavjud. Biroq, analitik usullarning rivojlanishi bilan elementlarni aniqlashda sezuvchanlik va selektivlikni oshirish zarurati ortadi. Bu esa ushbu ortib borayotgan talablarni qondirish uchun yangi yondashuvlarni izlash zarurligini taqozo etadi. Bunday usullardan biri immobillangan organik reagentlar (IMOR) yordamida gibrid sorbsion-spektroskopik yondashuvdir. Sorbsiya va spektroskopiyani birlashtirgan gibrid usullar yuqori sezuvchanligi va selektivligi tufayli analitik kimyoda tobora ommalashib bormoqda. Ushbu usullar metall ionlarining maqsadli oldindan konsentratsiyasini osonlashtiradi, keyinchalik ular atom-absorbtsion spektroskopiyasi (AAS), ICP-AES va ultrabinafsha, koʻrinadigan spektroskopiya (UV-Vis spektroskopiyasi) kabi spektroskopik usullar yordamida tahlil qilinishi mumkin. Ushbu usullar butun dunyo boʻylab tadqiqot laboratoriyalarida keng qoʻllaniladi, shu jumladan: Massachusetts Institute of Technology (AQSh), ETH

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <http://www.scholar.google.com>, <http://www.sciencedirect.com> va boshqa manbaalar materiallari asosida tayyorlangan

Zurich (Shvetsariya), Helmholtz Centre for Environmental Research (Germaniya), Swiss Federal Laboratories for Materials Science and Technology (Shvetsariya), National Institute of Standards and Technology (AQSh), University of Cambridge (AQSh), Institute of Environmental Assessment and Water Research (Ispaniya), Institute of Environmental Assessment and Water Research (Ispaniya), Lawrence Berkeley National Laboratory (AQSh), Moskva davlat universitetida (Rossiya), Rossiya kimyo-texnologiya universiteti (Rossiya), RFA Analitik kimyo instituti (Rossiya), RFA Umumiy va noorganika instituti (Rossiya), Tsinghua University (Tsinxua, Pekin), Peking University (Pekin), Samarqand Davlat universiteti (O'zbekiston), O'zbekiston milliy universitetida (O'zbekiston).

Dunyo bo'ylab og'ir va zaharli metallarni aniqlash uchun yuqori sezgir kimyoviy sensorlarni yaratishga qaratilgan bir qator istiqbolli yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu ustuvor yo'nalishlar qatoriga zaharli va og'ir metallarni aniqlashning yanada ishonchli, tez va tejamkor usullarini ishlab chiqish kiradi. Butun dunyoda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy natijalarga erishildi, jumladan: mineral suvlarda mis va ruxning konsentratlash bilan metallarni oldindan ekstraksiyalash bilan atom spektroskopiyasi orqali aniqlangan (Maldova); rux, xrom, kadmiy, mis, nikel, qo'rg'oshin, temir, marganes, magniy va kalsiy induktiv bog'langan plazma atom emissiya spektroskopiyasi (ICP-OES) yordamida aniqlangan (Polsha); Cd, Co ning yangi to'g'ridan-to'g'ri aniqlanishi, Cr, Cu, Mn va Ni atom absorbsion spektroskopiyasi bilan, bunda askorbin va oksalat kislotalarning magniy nitrat bilan birgalikda kimyoviy modifikator sifatidagi imkoniyatlari o'rganilgan (Rossiya); immobillangan azoreagentlar va trifenilmetan bo'yoqlari va piridin yordamida zaharli va og'ir metallarni aniqlashning sorbsion-fotometrik usullari ishlab chiqilgan (O'zbekiston).

Butun dunyoda og'ir va zaharli metallarni aniqlash uchun o'ta sezgir kimyoviy sensorlarni yaratishga yo'naltirilgan bir qancha istiqbolli usullar ustida izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotning ustuvor yo'nalishlari og'ir va zaharli metallarni aniqlashning yanada ishonchli, tezroq va tejamkor usullarini ishlab chiqishdir. Zaharli va og'ir metallarni aniqlashning ishonchli, tez va tejamkor usullarini ishlab chiqish, mavjud usullarning sezgirliги, selektivligi va ekspressivligini oshirish, ishlab chiqilgan usullar asosida sezgir sensor qatlamlarini yaratish, shuningdek sanoat muammolarini hal qilish uchun yuqori samarali kichik o'lchamli sensorlarni ishlab chiqish orqali tibbiy, sud-tibbiyot va ekologik muammolar yechishga qaratiladi.

#### **Muammoning o'rganilganlik darajasi.**

Atrof-muhitdagi metall ionlarini tahlil qilishning sorbsion-spektroskopik usullarini ishlab chiqish va tasdiqlash masalasi ko'p o'rganilgan mavzudir. Biroq, ushbu yutuqlarga qaramay, qo'shimcha o'rganishni talab qiladigan sohalar mavjud, xususan, matritsa ta'sirini kamaytirish, sorbent barqarorligini oshirish, ko'p tahlilli va avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqish. Atrof-muhit bilan bog'liq muammolar ortib borayotganidan kelib chiqqan holda, ushbu usullar atrof-muhitni muhofaza qilish va ifloslanishni nazorat qilish bo'yicha global miqiyosda muhim rol o'ynaydi

Turli matritsalarda IMOR yordamida tez, yuqori selektiv sorbsion-

spektroskopik tahlil usullarini ishlab chiqish dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida jadal izlanishlar mavzusidir. Ushbu tadqiqot sohasiga quyidagi xorijiy olimlar hissa qo'shgan: Y.A. Zolotov, O.A. Shpigun, T.N. Shexovsova, O.V.Kuznetsova, V.V.Openko, A.V.Danilova, V.P.Dedkova, M.A.Babuev, S.D.Tataeva, S.Tokalioglu, M.Soylak, S.Valas, A. Tobiasz, G.Tsogaz, M.C.Yebra-Biurrun, Bermejo-Barrera A, Sh.Tivari, R.Saksena, Pourreza N, Hoveizavi R og'ir metallar ionlarini aniqlashning sorbsion-spektroskopik va sorbsion-atom-absorbsion usullari sohasida ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. Ularning tadqiqotlarida organik reagentlar uchun tayanch sifatida turli xil silikagellar, modifikatsiyalangan silikagel, tabiiy zeolitlar, polimer membranalar va boshqa materiallar qo'llanilgan.

Yurtimizda Djijanbayeva R.X., Kabulov B.D., Shesterova I.P., Gevorgyan A.M., Smanova Z.A., Turobov N.T., Abdurahmonov E., Nasimov A.M. va boshqalar tomonidan og'ir metall ionlarini sorbsion-spektroskopik aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Lekin hozirgacha mis, temir va rux ionlari immobillangan azo va uchfenilmetan asosli bo'yoqlar yordamida sorbsion-spektroskopik, sorbsion-atom-absorbsion aniqlash bo'yicha izlanishlar olib borilmagan.

**Dissertatsiya mavzusi dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining fundamental va amaliy loyihalari doirasida amalga oshirildi: F-7-48 "Polimer materiallari yuzasida immobillangan metall nanozarrachalarning faza o'zgarishi mexanizmini o'rganish" (2017-2020 yy.), FZ-20171024243 "Kobalt va temir ionlarini aniqlashda immobillangan azoreagentlarning fizik-kimyoviy xossalari tadqiq etish" (2018-2019 yy.), FZ-201908098 "Kaolinlarni temir oksidlaridan tozalash" (2020-2022 yy.)

**Tadqiqotning maqsadi** atrof-muhit obyektlaridan Fe(III), Cu(II) va Zn ionlarini aniqlashning gibrid sorbsion-spektroskopik usullarini ishlab chiqish va validatsiyasidan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

mis(II), temir(III) va rux ionlarini aniqlash uchun selektiv organik reagent va ion almashuvchi sorbent tanlash, organik reagentlarni polimer tashuvchilarda immobillashni optimallashtirish hamda ularning funksional va analitik xususiyatlarini saqlab qolgan holda mis(II), temir(III) va rux ionlarini sorbsion-spektroskopik aniqlashning optimal sharoitlarini tanlash;

ishlab chiqilgan usul xatoligini bartaraf etish uchun fon korreksiyasini tanlash, to'liq uzunliklarini optimallashtirish, kalibrlash uchun standart yechimlar bilan foydalanish, takroriylikni tekshirish uchun nazorat na'munalari bilan foydalanish va natijalarning ishonchliligini oshirish uchun matritsa effektlarini hisobga olish orqali rux, temir va misning aniqlashning sorbsion-spektroskopik tahlilidagi qonuniyatlarini aniqlash;

immobillangan organik reagentlarning mis(II), temir(III) va rux ionlari bilan kompleks hosil bo'lish kimyosi, muvozanat konstantalarini topish, IQ spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskopiya, rentgenofluoressent tahlili, spektrofotometriya, diffuzion nur qaytarish spektroskopiyasi usullaridan foydalangan holda aniqlash;

eritmada va qattiq fazada olingan kompleks hosil bo'lish qonuniyatlarining muvofiqligini aniqlash va ularni solishtirish, shuningdek, ularning barqarorligini oshirish;

ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul bilan mis(II), temir(III) va rux ionlarini aniqlashning quyi chegaralarini topish hamda usulni o'rganilayotgan ionlar tutgan atrof-muhit obyektlari analiziga qo'llash;

atrof-muhit obyektlari va oziq-ovqat mahsulotlarida mis(II), temir(III) va rux ionlarini sorbsion-spektroskopik aniqlashning yuqori sezgir va selektiv usullarini ishlab chiqish.

ishlab chiqilgan usulning validatsiyasiya ko'rsatkichlarini sertifikatlangan nazorat materiallaridan foydalangan holda usullarning asosiy analitik parametrlarini (chiziqlilik, aniqlash chegaralari, miqdoriy chegaralar, aniqlilik, takrorlanuvchanlik) baholash.

**Tadqiqot obyekti** turli xil atrof-muhit obyektlari, shuningdek, og'ir metall ionlarini o'z ichiga olgan tabiiy va chiqindi suvlar, standart namunalar, oziq-ovqat mahsulotlari va aniqlashda sorbsion spektroskopik usulini takomillashtirish.

**Tadqiqot predmeti** - mis, temir va rux ionlari, ularning birikmalarini immobillangan organik reagentlar toron I, sulfasalitsil kislotasi, ferron va alizarin qizil S, sorbent PPF-1 yordamida sorbsion-spektroskopik usullarini ishlab chiqish.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot usullari sifatida spektroskopik (spektrofotometrik, diffuzion nur qaytarish spektroskopiyasi, sorbsion-spektroskopik, sorbsion-atom-absorbsion) va olingan ma'lumotlarni hisoblashning statistik usullari tanlangan. Skanerli elektron mikroskopiya, rentgen-fluoresan tahlili, elektrokimyoviy usullar, IQ-spektroskopiya va kvant kimyoviy hisoblash usullari ham qo'llanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

tashuvchilarga organik reagentlar: toron I, sulfasalitsil kislotasi, ferron va alizarin qizil S immobillash analitik-faol guruhlar hisobiga kuchsiz kislotali muhitda hamda sezuvchanlikning 100 marta oshishi, konsentrlash hisobiga amalga oshishi isbotlangan;

PPF-1 tashuvchisiga toron I, sulfasalitsil kislotasi, ferron va alizarin qizil S reagentlarining mis(II), temir(III) va rux ionlari bilan muhitning optimal pH qiymatlarida universal (Briton-Robinson) bufer aralashmalarida mustahkam kompleks hosil qilishi va immobillashning optimal sharoitlari tanlangan;

Cu(II), Zn va Fe(III) ionlarini atom-absorbsion aniqlashda monoxromator tirqishi 0,7 nm va 0,2 nm ga teng bo'lganda, alangali atomizatsiya uchun yoqilg'i atsetilen-havo, rezonans chizig'i to'lqin uzunligi, 324,8 nm, 243,8 nm va 213,9 nm da, metall ionlarini aniqlash tezligi 7, 8, 9 minut bo'lganda Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunishi 1-6 mkg/l ga tengligi aniqlangan;

mis(II), temir(III) va rux ionlarining qattiq fazaga immobillangan toron I, sulfasalitsil kislota, ferron va alizarin qizil S bilan kompleks hosil qilishi eritmadagidek funktsional faol karboksil, gidroksil va diazo guruhlari hisobiga amalga oshishi aniqlandi. Shu bilan birga, komplekslarning barqarorligi eritmaga nisbatan 100 baravar oshishi kuzatildi, ularning qiymatlari quyidagicha:  
 $(\beta_{CuToron(qat.faza)}=5,95 \cdot 10^{11} > \beta_{CuToron(eritma)}=2,13 \cdot 10^9, \quad \beta_{FeSSK(qat.faza)}=2,48 \cdot 10^{10} >$

$\beta_{\text{FeSSK(eritma)}}=3,85 \cdot 10^8$  va  $\beta_{\text{ZnAQS(qat.faza)}}=8,15 \cdot 10^{15} > \beta_{\text{ZnAQS(eritma)}}=10,42 \cdot 10^{13}$ , ushbu natijalar metallar ionlari radiusining kamayish qonuniyatiga muvofiq keladi:  $\text{Fe}^{3+} > \text{Cu}^{2+} > \text{Zn}^{2+}$ ;

mis(II), temir(III) va rux ionlari komplekslarining tanlangan immobillangan organik reagentlar bilan hosil bo'lgan nur yutish maksimumlarining batoxrom siljishlar uzunlik bo'yicha  $\Delta\lambda_{\text{FeL}}=20$  nm,  $\Delta\lambda_{\text{ZnL}}=13$  nm va  $\Delta\lambda_{\text{CuL}}=10$  nm suvli muhit bilan solishtirganda, bu polimer asosidagi qattiq fazada immobillangan organik reagentlar eritmaga nisbatan barqarorroq ekanligini tasdiqlaydi. Bu elektrostatik tortish kuchlarining kamayib yo'qolishi bilan izohlanadi;

ishlab chiqilgan usul yordamida mis, temir va rux ionlarini aniqlashning quyi chegaralari belgilandi: mis uchun 1 mkg/l, rux uchun 6 mkg/l va temir uchun 5 mkg/l. Usulni sun'iy aralashmalar va atrof-muhit obyektlarini tahlil qilishda qo'llash natijasida nisbiy standart og'ish 0,023 dan oshmaganligi isbotlandi;

ishlab chiqilgan mis, temir va rux ionlarini aniqlash usuli suv va oziq-ovqat mahsulotlari analiziga qo'llanilgandagi olingan natijalar, boshqa DavST usullari bilan solishtirilgan va validatsiya qilingan, natijalarning to'g'riligi, sistematik xatoliklar yo'qligi Styudent va Fisher mezonlari bilan tasdiqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

immobillangan toron I, sulfosalitsil kislotasi, ferron va alizarin qizil S yordamida mis(II), rux va temir(III) ionlarini aniqlash uchun selektiv va sezgir sorbsion-spektroskopik usullar ishlab chiqilgan bo'lib, ular turli xil suv namunalarini (tabiiy, oqova, ichimlik suvlari va boshqalar) tahlil qilishda qo'llanilgan;

immobillangan reagentlardan foydalanilgan holda gibrid, selektiv va sezgir sorbsion-spektroskopik usul ishlab chiqilgan bo'lib, u mis(II), temir(III) va rux ionlarini aniqlashga asoslangan. Ushbu usul «Elektrokimyozavod» AJ, «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ va «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ markaziy analitik laboratoriyasidada sinovdan o'tkazilib, amaliyotga joriy etilgan. Shuningdek, u Navoiy va Toshkent viloyatlaridagi chiqindi suvlari tahlilida ham qo'llanilgan;

turli xil atrof-muhit obyektlari analizida immobillangan toron I, sulfosalitsil kislotasi, ferron va AQS yordamida sezgirlik, aniqlik, qayta takrorlanuvchanlik kabi metrologik tavsiflarni yaxshilashga imkon beradigan sorbsion-spektroskopik usuli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotlar zamonaviy tahlil usullari, xususan IQ-spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskopiya, rentgenofluoresens tahlil, optik molekulyar va atom-absorbsion spektroskopiya kabi metodlar yordamida olingan tajriba natijalari bilan tasdiqlandi, shuningdek, umumqabul qilingan standartlar, «kiritildi-topilgdi» metodi asosida va DavSt 54276-2010, DavSt 4011-72, invertsiyon voltamperometriya va spektrofotometriya usullari bilan taqqoslangan. Olingan natijalar turli matematik statistika metodlari (Styudent va Fisher mezonlari va b.) yordamida qayta ishlangan

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati PPF-1 tolasimon sorbentiga toron I, sulfosalitsil kislotasi, ferron va AQS ning immobillanishining maqbul sharoitlari topilganligi, Cu(II), Fe(III) va Zn

ionlariga aniqlash selektivligi ortganligidan iborat. Organik reagentlarni immobillash hisobiga mis(II), temir(III) va rux(II) ionlarining gibrid sorbsion-spektroskopik aniqlashning analitik va metrologik tavsiflari yaxshilandi.

Tadqiqotlarning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik metodlarning mis(II), temir(III) va rux ionlarini aniqlashda qo'llanilishida, shuningdek, atrof-muhit obyektlari (tabiiy, chiqindi va ichimlik suvlari, oziq-ovqat mahsulotlari, tuproq va h.k.)ni tahlil qilishda va metrologik hamda analitik ko'rsatkichlarni yaxshilashda namoyon bo'ladi

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sanoat oqava suvlaridan mis(II), temir(III) va rux ionlarini aniqlashning sorbsion-spektroskopik usulini yaratish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra:

“Elektrokimyozavod” AJ amaliyotida mis(II), temir(III) va rux ionlarini immobillangan organik reagentlar bilan aniqlashning gibrid sorbsion-spektroskopik usuli qo'llanilgan (“Elektrokimyozavod” AJning 2023-yil 21-dekabrda 17-son ma'lumotnomasi). Taklif etilayotgan gibrid sorbsion-spektroskopik usullarning eksperimental natijalari boshqa fizik va fizik-kimyoviy usullarga nisbatan, ayniqsa, aniqlik, selektivlik va turli xil tarkibni aniqlash qobiliyati, shuningdek, tahlil ekspresligi bo'yicha ustunligini ko'rsatadi. Bu ayniqsa temir(III) ionlarini aniqlashda sezilarli darajada ko'zga tashlanadi;

immobillangan organik reagentlar yordamida mis(II), temir(III) va rux ionlarini aniqlashning sorbsion-spektroskopik usuli Toshkent viloyatining “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ analitik laboratoriyasida oqava suvlarni tahlil qilishda sinovdan o'tkazildi (“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ ma'lumotnomasi, 2024-yil 1-iyuldagi 572-son). Natijada ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul rux elektrolitidan mis(II), temir(III) va rux ionlarini aniqlash imkonini berdi va amaliy foydalanish uchun tavsiya etildi;

mis(II), temir(III) va rux ionlarini immobillangan organik reagentlar bilan aniqlash usuli sinovdan o'tgan va Cu(II), Fe(III) va Zn ni o'z ichiga olgan obyektlarni tahlil qilishda foydalanish uchun tavsiya etilgan. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ suv muammolari tadqiqoti laboratoriyasi oqava suvlarni tahlil qilish imkonini bergan (“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ guvohnomasi 2022-yil 13-aprelda 23.01-01-07/159-son). Natijada NKMK AJ oqava suvlarida tahliliy laboratoriyasida Cu(II), Fe(III) va Zn ionlari aniqlashning me'yoriy texnik hujjatlarda belgilangan mezonlarga muvofiqligi ishtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishda ahamiyatligi takidlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 19 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 15 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 32 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, shundan 12 ta ilmiy maqola, jumladan, 10 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida tomonidan fan doktori dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan va xalqaro jurnallardagi 4 ta maqola Scopus va WOS ma'lumotlar bazalarida indekslangan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, yettita bob, xulosa,

foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 200 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqotning obyektlari va predmetlari keltirilgan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish istiqbollari bo‘yicha xulosa qilingan hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mis, rux va temir ionlarini aniqlashning amaliy jihatlari (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida mis, rux va temir ionlari, ularni aniqlashning fizik-kimyoviy usullari, aniqlash jarayonida qo‘llaniluvchi turli xil sorbent va organik reagentlar, aniqlashning atom-absorbsion hamda sorbsion-atom-absorbsion usullar bo‘yicha mavjud ma’lumotlarning tahlili keltirilgan.


Turli obyektlarda organik reagentlar yordamida mis, rux va temir ionlarini aniqlash natijalari tizimlashtirildi. Adabiyotlarda sulfosalitsil kislotasi va ferron yordamida temir(III) ioni fotometrik usulda aniqlangan bo‘lsada, dastlabki konsentrlash orqali reagentlarni turli matritsalariga immobillash va atom-absorbsion spektroskopiyadan foydalangan holda aniqlash haqida ma’lumotlar keltirilmaganligi qayd etilgan. Shuningdek, toron I ning Cu(II) va AQS ni Zn(II) ioni bilan hosil qilgan kompleksi xossalari ham adabiyotlarda o‘rganilmaganligi aniqlangan.




Dissertatsiyaning **“Mis(II), zux(II) va temir(III) ionlarini aniqlash uchun ishlatiladigan reaktivlar, uskunalar va yordamchi qurilmalar. Eksperiment o‘tkazish metodikasi”** nomli ikkinchi bobida, tadqiqot davomida qo‘llanilgan asbob-uskunalar, jihozlar, reaktivlar, mis(II), rux(II) va temir(III) ionlarining hamda organik reagentlarning standart va ishchi eritmalarini tayyorlash usullari keltirilgan.

Tadqiqotda qo‘llanilgan toron I, AQS, ferron va sulfosalitsil kislotasining struktura formulalari 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**


### Tadqiqotda qo‘llanilgan organik reagentlar

Stuktur formulasi	Organik reagent nomi	Brutto formulasi	Maksimal nur yutish spektri $\lambda_R$ , nm
	Ferron (6-iod-8-oksixinolin-5-sulfokislota)	$C_9H_6NO_4SI$	445


	Sulfosalitsil kislotasi (2-gidroksi-5-sulfobenzoyl kislotasi)	$C_7H_6O_6S$	216
	Alizarin qizil S (9,10-digidro-3,4-digidroksi-9,10-diokso-2-antratsensulfokislotaning natriyli tuzi)	$C_{14}H_7NaO_7S$	422
	Toron I (4-[(2-aronofenil)azo]-3-gidroksi-2,7-naftalin-disulfokislota)	$C_{16}H_{13}AsN_2O_{10}S_2$	480

Dissertatsiyaning « **Organik reagentlarni tashuvchida immobillash hamda Cu(II), Zn(II) va Fe(III) ionlarining kompleks hosil qilishining maqbul sharoitlarni tanlash**» nomli uchinchi bobida toron I, AQS, ferron va sulfosalitsil kislotasining immobillanishi hamda Cu(II), Zn(II) va Fe(III) bilan kompleks hosil qilishining optimal sharoitlari (optimal sorbent tanlash, eritma muhiti, Buger-Lambert-Ber qonuniga bo‘ysunishi) ta’sirlari o‘rganildi. Kompleks birikmalar tarkibidagi metall-reagent mol nisbatlari aniqlangan, haqiqiy molyar so‘ndirish koeffitsienti, reaksiya muvozanat konstantasi va barqarorlik konstantalari hisoblab topildi.



Immobillash o‘tkazishdan oldingi va keyingi organik reagentlar eritmalarining nur yutilish spektrlari hamda sorbentlarning nur qaytarish spektrlari o‘rganildi (1-4 rasmlar).



**1-rasm.** Toron I reagentining immobillashdan oldingi (1) va keyingi (2– SMA-1, 3 – PPD-1, 4 – PPA-1, 5 – PPF-1) nur yutilish spektrlari. ( $C_R=20$  mkg/ml,  $m_{\text{sorb.}}=0,2$  g,  $V_R=10$  ml,  $t=2$  min).



**2-rasm.** SSK reagentining immobillashdan oldingi (1) va keyingi (2– SMA-1, 3 – PPD-1, 4 – PPA-1, 5 – PPF-1) nur yutilish spektrlari. ( $C_R=10$  %,  $m_{\text{sorb.}}=0,2$  g,  $V_R=10$  ml,  $t=7$  min).



**3-rasm.** AQS reagentining immobillashdan oldingi (1) va keyingi (2– PPA-1, 3 – SMA-1, 4 – PPD-1, 5 – PPF-1) nur yutilish spektrlari. ( $C_R = 5 \times 10^{-5} M$ ,  $m_{\text{sorb.}} = 0,2$  g,  $V_R = 10$  ml,  $t = 2$  min).









**4-rasm.** Ferron reagentining immobillashdan oldingi (1) va keyingi (2– PPA-1, 3 – PPF-1) nur yutilish spektrlari. ( $C_R = 5 \times 10^{-4} M$ ,  $m_{\text{sorb.}} = 0,2$  g,  $V_R = 10$  ml,  $t = 4$  min).

1-4-rasmdan ko‘rinib turibdiki, toron I, SSK, AQS va ferron eritmasining nur yutilish spektri maksimal analitik signali mos ravishda 490, 216, 422 va 620 nm da kuzatildi. Organik reagent eritmalarining optik zichligi kamayishi immobillanish sodir bo‘lganligidan dalolat beradi degan xulosa qilish mumkin.

Olingan natijalar organik reagentlarning immobillanishi uchun maqbul sorbent sifatida O‘zbekiston Milliy universiteti Polimerlar kimyosi kafedrasida sintez qilingan PPF-1 tolasi mos keladi, uning maksimal analitik signali 490, 216, 422 va 620 nmlarda qayd qilingan, bu esa toron I, SSK, AQS va ferron ning nur yutilish spektrlarida qayd etilgan to‘lqin uzunligiga mos keladi.

Cu(II), Zn(II) va Fe(III) ionlarini toron I, SSK, AQS va ferron immobillangan reagentlari bilan qattiq fazada diffuzion nur qaytarish hamda suvli muhitda reagent va hosil qilgan komplekslarning nur yutish spektroskopiya yordamida o‘rganish natijalari o‘rganildi (5-rasm)

Olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki nur qaytarish spektroskopiya PPF-1/AQS/Zn(II) matritsaisida  $\lambda_{\Delta_{\text{MeAQS}}} = 535 - 522 = 13$  nm, PPF-1/toron I/Cu(II) matritsaisida  $\lambda_{\Delta_{\text{MeToron}}} = 590 - 580 = 10$  nm va PPF-1/SSK/ Fe(III) matritsaisida esa  $\lambda_{\Delta_{\text{MeSSK}}} = 530 - 510 = 20$  nm bataxrom tamonga kompleks birikmalarning borqarorligi oshib qattiq fazada organik reagentlarning polimer tashuvchilarga mustaxkam joylashganligi hamda eritmadagi elektrostatik tortishish kuchlari kamayganligi bilan isbotlanad.



**5-rasm.** Diffuzion nur qaytarish (1-PPF-1/AQS/Zn(II), 2- PPF-1/Toron/Cu(II), 3-PPF-1/SSK/Fe(III) va PPF-1/Ferron/Fe(III) matritslarida) koeffitsiyentining (Kubelk-Munkning funksiyasi) va nur yutishining (5- AQS/Zn(II) + AQS, 6- Toron/Fe(III), 7- SSK/Fe(III)+SSK, 8-Ferron/Fe(III)+Ferron) to‘lqin uzunligiga bog‘liqligi.

Cu(II) ionlari toron I organik reagenti bilan, Zn(II) ionlari AQS bilan, Fe(III) ionlari ferron va SSK reagentlari bilan hosil qilgan komplekslarining spektral tavsiflari maqbul sharoitlarda aniqlandi (2-jadval).

### 2-jadval

#### Cu(II), Zn(II) va Fe(III) ionlarining immobillangan toron I, AQS va ferron, sulfosalitsil kislotasi bilan hosil qilgan komplekslarini olinishining maqbul sharoitlari

Metall ionlari	Reagent	Kompleks rangi	pH	$\lambda_{HR}, \text{nm}$	Suvli muhitda nur yutilish maksimumi, nm	Qattiq fazada diffuzion nur qaytarish maksimumi, nm	$\lambda_{MeL}, \text{nm}$	Reagent hajmi, ml	Sorbent massasi, g
Cu(II)	Toron I	To'q-ko'k	5-5,5	490	580	590	10	10,0	0,20
Zn(II)	AQS	Qizil-binafsha	5-6	216	522	535	13		
Fe(III)	SSK	To'q-qizil	2-2,5	422	510	530	20		
Fe(III)	Ferron	To'q-yashil	2-3	445	610	550	70		

2-jadvallardan toron I va SSK reagentlari Cu(II) va Fe(III) ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining kontrastligi yuqori ekanligi ko'rinib turibdi, bu esa mazkur ionlarini aniqlash uchun sezgir analitik reagent sifatida qo'llash imkoniyatini beradi. Keyingi tadqiqot ishlarida Cu(II), Zn(II) va Fe(III) ionlarining toron I, AQS, ferron va SSK bilan aniqlashning tanlangan maqbul sharoitlarda amalga oshirildi.

**Dissertatsiyaning "Mis(II), rux(II) va temir(III) ionlarini sorbsion-atom-absorbtsion aniqlashning sharoitlarini maqbullashtirish"** deb nomlangan to'rtinchi bobida analitik signalga ta'sir etuvchi atom-absorbtsion spektrometri parametrlari - monoxromator tirqishi kengligi, alangali atomizatsiya uchun yoqilg'i tarkibi tanlangan, desorbent tarkibi, konsentratsiyasi va hajmi, metall ionlari konsentratsiyasi va konsentrlash vaqtiga analitik signalning bog'liqligi topilgan. Cu(II), Zn(II) va Fe(III) ionlarini sorbsion-atom-absorbtsion aniqlashning ishlab chiqilgan uslubi keltirilgan.


### 3-jadval

#### Mis(II) va temir(III) ionlarini sorbsion-atom-absorbtsion aniqlashning maqbul sharoitlari

Element	Cu	Fe	Zn
Rezonans chizig'i to'liq uzunligi, nm	324,8	243,8	213,9
Monoxromator tirqishining kengligi, nm	0,7	0,2	0,7
G'ovak katodli lampa toki, mA	8	12	8
Ionlarni atomizatsiyalash uchun yoqilg'i tarkibi	Oksidlovchi asetilen-havo aralashmasi	Asetilen-havo	Asetilen-havo
Elementning aniqlanish chegarasi (alangali atomizatsiyali AAS, ishlab chiqilgan usul bo'yicha, mkg/ml)	0,001	0,005	0,02-0,06
Desorbent konsentratsiyasi va hajmi	15 ml 0,2 M	15 ml 0,5 M	10 ml 0,2 M

O‘tkazilgan tajribalarga asoslanib Cu(II), Fe(III) va Zn(II) ionlarini sorbsion-atom-absorbsion aniqlashning maqbul sharoitlari topildi (3-jadval).

Alanga atomizatsiyali atom-absorbsion spektrometrik tahlilida analitik signalning g‘ovak katodli lampaning turli xil tok oqimida temir(III) konsentratsiyasiga bog‘liqligi aniqlandi (7-rasm).




**7-rasm.** Analitik signalning g‘ovak katodli lampaning turli xil tok oqimida temir(III) (a), rux(II) (b) va mis(II) (s) ionlari konsentratsiyasiga bog‘liqligi

7-rasmdan ko‘rinib turibdiki, atom-absorbsion spektrometrining analitik signali g‘ovak katodli lampaning 5 mA tok oqimida nisbatan sustroq, 10, 12 va 15 mA tok oqimlarida esa o‘zaro yaqin analitik signal kuzatiladi. Buni hisobga olgan holda, temirni, rux va misni aniqlash uchun optimal tok oqimi mos ravishda 12 mA, 10 mA va 8 mA ni tanlandi.


Berilgan elementlarning quyi aniqlanish chegaralarining ishlab chiqilgan uslubning nisbiy standart chetlanishiga bog‘liqlik egrilari topildi (8-rasm).

8-rasmda ishlab chiqilgan usul yordamida Cu(II) va Fe(III) ionini quyi aniqlash chegarasi “kiritildi-topildi” usuliga mos ravishda 0,001 mkg/ml va 0,005 mkg/ml ekanligi aniqlandi.




**8-rasm.** Cu(II) (a) va Fe(III)(b) ionlarini sorbsion-atom-absorbsion aniqlash natijalarining nisbiy standart chetlanishining quyi aniqlanish chegarasiga bog'liqligi.

9-rasmdan ko'rinadiki, metallni konsentrlash vaqtining ortishi graduirlangan grafik burchagining mutanosib ravishda ortishiga va shunga mos holda eritmadagi mis ionini aniqlash sezgirligining oshishiga olib kelgan. 5 daqiqa davomida konsentrlash natijasida mis ionini aniqlash sezgirligi 10 baravar oshgan.



**9-rasm.** Konsentrlashning turlicha vaqtlarida Cu(II) ionlarini sorbsion-atom-absorbsion aniqlashda analitik signalning eritmadagi metall konsentratsiyasiga bog'liqligi: a-0,5 min; b-1 min; v-2 min; g-5 min; d- 7 min.


Cu(II), Zn(II) va Fe(III) ionlarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan sorbsion-atom-absorbsion usul jarayoni 10-rasmda ko'rsatilgan.




**10-rasm.** Eritmalardan Cu(II), Zn(II) va Fe(III) ionlarini selektiv tanlab olish uchun tolali tashuvchidan foydalanish va organik reagentlarni (toron I, sulfasalitsil kislota, ferron va alizarin qizil C) immobillash.

**Dissertatsiyaning “Toron I, AKS, Ferron va SSK bilan imobillangan mis, rux va temir ionlarining kompleks hosil bo‘lishini spektral o‘rganish”** deb nomlangan beshinchi bobida immobillangan toron I, AQS, feeron va SSK ning Cu(II), Zn(II) va Fe(III) ionlari bilan hosil qilgan komplekslari tarkibi va tuzilishini aniqlashning IQ-spektroskopiyasi, skanerlovchi elektron mikroskopiyasi (SEM), rentgenofluoressent tahlillari natijalari keltirilgan.


Cu(II) ionining PPF-1 sorbentiga immobillangan toron I, Zn(II) ionining PPF-1 sorbentiga immobillangan AQS reagenti bilan hamda Fe(III) ionining PPF-1 sorbentiga immobillangan ferron va SSK bilan hosil qilgan komplekslarning ta‘sir mexanizimi va tarkibini aniqlash uchun ularning IQ spektroskopik, skanerlovchi elektron mikroskopik va rentgenofluoressent analiz usullarida o‘rganildi. 10-rasmda SSK ning IQ-spektri, 11,12,13-rasm va 5-jadvalda PPF-1 sorbenti, unga immobillangan SSK hamda Fe(III) ionini bilan hosil qilgan kompleksning va 14-rasmda PPF-1 sorbenti, unga immobillangan AQS hamda Zn(II) ionini bilan hosil qilgan kompleksning IQ-spektroskopik tahlil natijalari keltirildi.




11-rasm. SSK reagentining IQ-spektri



12-rasm. PPF-1 sorbentining IQ-spektri



13-rasm. PPF-1 tolasiga immobilangan SSK reagentining IQ-spektri



14-rasm. Fe(III) ionini bilan PPF-1 sorbentiga immobilangan SSK hosil qilgan kompleksining IQ-spektri


**5-jadval**

**PPF-1 sorbenti, immobilangan SSK va Fe(III) ionini bilan immobilangan SSK kompleksining IQ-spektroskopiya tahlili natijalari**

Funksional guruhlar	$V_{PPF-1}, \text{sm}^{-1}$	$V_{ImR} \text{ (SSK.)}, \text{sm}^{-1}$	$V_{\text{kompleks Fe}}, \text{sm}^{-1}$
-OH	3245,10	3330-3184	3330-3186
-CH <sub>2</sub> -	2928-2849	3030-2848	3044-2853
-P-H	2362	2362	2362
-P-O	1448	1448	1457
-N-H	1642	1627-1579	1647-1554
-C-H (Ar)	-	3053	3044
-C-O	-	1309	1310
-C=C- (Ar)	-	1609-1554	1600-1554
-S=O	-	1037	1079
-O-Me	-	-	670-534

IQ-spektroskopik tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, PPF-1 sorbentiga SSK reagenti immobilangandan so‘ng reagentning aromatik halqadagi -C-H ( $sp^2$ ) bog‘iga xos yangi  $3053 \text{ sm}^{-1}$  sohada, aromatik halqadagi -C=C- bog‘iga xos  $1609-1554 \text{ sm}^{-1}$  sohada, karboksil guruhidagi -C-O bog‘iga xos  $1309 \text{ sm}^{-1}$  yutilish chiziqlari va -OH guruhiga xos  $3330-3184 \text{ sm}^{-1}$  sohada kengayish kuzatildi. Mazkur o‘zgarishlar SSK reagentining PPF-1 sorbentiga immobilanganligidan dalolat beradi. Fe(III) ionlarining immobilangan SSK reagenti bilan hosil qilgan kompleks


IQ-spektrlari o'rganilganda  $670-534\text{ cm}^{-1}$  sohada  $-\text{O}-\text{Me}$  bog'iga xos bo'lgan yutilish chiziqlari paydo bo'lganligi aniqlandi (15-rasm).



**15-rasm:** Zn(II) ionini bilan PPF-1 sorbentiga immobillangan AQS hosil qilgan kompleksining IQ-spektri

15-rasmda infraqizil spektrda  $598\text{ cm}^{-1}$  diapazonida yangi yutilish chizig'ining paydo bo'lishi  $-\text{O}-\text{Zn}$  bog'lanishining hosil bo'lganligini ko'rsatadi. Bu immobillangan AQSning rux ionlari bilan o'zaro ta'siri natijasida kompleks hosil bo'lganligini taxmin qilishga asos beradi.

PPF-1 sorbentiga immobillangan toron I va Cu(II) ioni hosil qilgan kompleksning skanerlovchi elektron mikroskopik tahlil natijalari 15-rasm va 6-jadvalda, rentgenofluoressent analiz natijalari 16-rasm va 7-jadvalda keltirib o'tildi.




**16-rasm.** Sorbent sirtida turli elementlar (1) hamda misning (2) taqsimlanishi mikrotasvirlari

**Cu(II) bilan immobillangan toron I hosil qilgan kompleksining  
skanerlovchi elektron mikroskopiya tahlili natijalari**

№	Namuna	Tarkib, % (n=3, P=0,95)							
		C	N	Cl	O	S	P	As	Cu
1	PPF-1+ Cu(II)	40,05 ± 0,5	34,28± 0,2	2,03 ± 0,1	21,85 ± 0,2	-	0,02 ± 0,01	-	1,77 ± 0,01
2	PPF- 1+toron I	43,9 ± 0,2	30,9 ± 0,4	12,3 ± 0,1	12,3 ± 0,3	0,20 ± 0,02	0,02 ± 0,02	0,37 ± 0,06	-
3	PPF- 1+toron I + Cu(II)	29,8 ± 0,2	12,9 ± 0,2	21,1 ± 0,1	19,5 ± 0,2	0,02 ± 0,01	0,03 ± 0,02	0,07 ± 0,04	15,85 ± 0,30

17-rasm va 6-jadvalda keltirilgan skanerlovchi elektron mikroskopiya natijalaridan ko'rinadiki, sorbent tolasida mis teng taqsimlangan, bu esa xemosorbsiya sodir bo'lganligidan dalolat beradi, bunda sorbentda misning miqdori 15,85% ni tashkil qiladi.



**17-rasm.** PPF-1 sorbentiga immobillangan toron I bilan Cu(II) ionlarining hosil qilgan kompleksining rentgenofluoressent tahlili

**PPF-1 sorbenti, immobillangan toron I va uni Cu(II) ionlari bilan  
kompleksining rentgenofluoressent tahlil natijalari**

Tahlil qilingan namuna	Cl, mass %	As, mass %	S, mass %	Cu, mass %
PPF-1+HCl	29,7	0,0007	0,144	0,0060
PPF-1+R	15,2	1,18	3,55	0,00335
PPF-1+R+Cu(II)	15,3	1,21	2,41	14,9000

Rentgenofluoressent tahlil natijalariga ko'ra, toron I immobillangan PPF-1 sorbenti namunasi tekshirilganda reagent tarkibiga kiruvchi As va S elementlari aniqlanganligi immobillanish jarayoni sodir bo'lganligidan dalolat beradi. 17-rasmda Cu(II) ionlari bilan immobillangan toron I hosil qilgan kompleks namunasi tekshirilganda esa Cu(II) ioniga tegishli yuqori intensivlikdagi cho'qqini ko'rishimiz

mumkin, shuningdek uning massa jihatdan miqdori 14,9 % ekanligi aniqlandi. Natijalar ishlab chiqilgan usulning to'g'irligidan darak beradi.

**Dissertatsiyaning “Turli ob'ektlarni tahlil qilishda mis, temir va ruxni aniqlashning gibril sorbsion-spektroskopik usulini analitik qo'llash” deb nomlangan oltinchi bobida sun'iy aralashmalar tarkibida Cu(II), Zn(II) va Fe(III) ionlarini aniqlashda begona ionlar ta'siri topilgan, ishlab chiqilgan usul tahlilning boshqa mustaqil usullari bilan raqobatbardoshligi baholangan, ishlab chiqilgan usul real obyektlar suv, tuproq va bazi oziq-ovqat mahsulotlari namunalari tahlilida qo'llanilgan.**

